
Yangi qurilgan "Bolalar maydonchasi" bolajonlar uchun bayram tuhfasini bo'ldi

Shahrimizdagi "Mehribonlik" mahalla fuqarolar yig'inida yangi qurilgan "Bolalar maydonchasi" ham bayram kunlari foydalanishga topshirildi. Uning ochilish marosimida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, shahar prokurori Dilmurodjon Qobulov hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirda so'zga chiqqan shahar hokimi yig'ilganlarni, ayniqsa hursandchiliklari cheksiz bo'lgan bolajonlarni Davlatimiz mustaqilligining 31 yilligi bilan tabrikledi. Mahalla yoshlari yaratilgan qulaylik hamda e'tibor uchun Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

Tadbir davomida mahalla faollariga hududda kelgusida amalga oshirilishi belgilangan ishlar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

2022-09-08 10:43:39